| An'anaviy oila sharoitida kelinlarda noadaptiv psixologik himoya mexanizmlarini kamaytirish bo'yicha psixokorreksion yondashuv | 554 |
| Qobilova Nasiba Ismatjon qizi | |
| Ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari | 557 |
| Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li, Jumayeva Hulkar Panji qizi | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish dinamikasi | 562 |
| Ravshanova Gulnoza Burxonovna, Turdiboyeva Umida Ravshan qizi, Norjigitova Rohila Abduvoid qizi | |
| Ingliz, o'zbek va rus tillari foydalanuvchilari uchun lug'atlar yaratishning lingvistik va amaliy asoslari | 565 |
| Raxmonova Sardora Muminjonovna | |
| Jismoniy tarbiya darslarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari | 569 |
| Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich | |
| Sutemizuvchilarning kelib chiqishi va xilma-xilligi | 573 |
| Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Sattorova Sanobar Boboqul qizi, Salimova Shahrizoda Ikromjon qizi | |
| Raqamli muhitda voyaga etayotgan o'spirinlarda empatiya va ijtimoiy-emotsional rivojlanishning neyropedagogik xususiyatlari | 578 |
| Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li | |
| Bo'lajak muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining o'rni | 583 |
| Sharipova Nodira Ilxom qizi | |
| Digital Educational Technologies in Improving the Quality of Teaching: Methods and Practical Implementation | 588 |
| Tashpulatova Nafisa Bakhtiyarovna | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish | 591 |
| To'laboyeva Irodaxon Maxammadali qizi | |
| SRDM modeli orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM kompetensiyalari va Computational Thinking ko'nikmalarini shakllantirish | 595 |
| Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi | |
| Umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari | 600 |
| Toshtemirova Dilnoza Abdug'ani qizi | |
| Development of an Integrated Learning Module Based on Digital Technologies in the Educational Process | 604 |
| Umirov Ilkhom Iskandar ugli | |
| Muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilarning nozologik guruhlariga differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirish | 608 |
| Uraimov Sanjar Ruzimatovich, Ubaydullayeva Dilnoza Muhammad qizi | |
| Boshlang'ich ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitishning bugungi holati va muammolari tahlili | 612 |
| Uroqova Yorqin qizi | |
| Inklyuziv ta'lim muhiti asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi | 615 |
| Xamidova Zarina Iskandar qizi | |
| Qushlar migratsiyasi va uning ekologik sabablari | 619 |
| Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Raximova Dilfuza Ilyos qizi, Saburova Sarvinoz Erkabay qizi | |
| Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari | 623 |
| Xasanova Nilufar Raxmatovna | |
| Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati uyg'unligi | 628 |
| Xaydarova Xilola Raximberdiyevna | |
| Разработка алгоритмов для визуализации и анализа решения задач линейного программирования | 631 |
| Буронова Муниса Баходировна, Хакимов Дониёр Бахтиёр Угли | |
| Ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv tushunchasi va iqtisodiy mazmuni | 637 |
| Mannanova Maftuna Fazliddin qizi | |
| Koreya ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati | 641 |
| Adamatov Anvar Ablaqulovich | |
| Bo'lajak pedagoglarning raqamli didaktik kompetensiyasini rivojlantirish: muammo va yechimlar | 645 |
| Uskanov Kaxramon Xalikulovich | |
| Matematika fanini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish | 648 |
| Mirzayeva Shahlo, Yorqulova Mashhura, Boboqulova Durdona | |



UMURTQALILARDA REGENERATSIYA JARAYONLARINING MOLEKULYAR VA FIZIOLOGIK ASOSLARI

Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti Kimyo-biologiya kafedrası v.b. dotsenti

Mirzayeva Ruksora Shukur qizi

Abdurahmonova Marjona Salim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
 Biologiya ta'lim yo'nalishining 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Umurtqali hayvonlarda regeneratsiya jarayonlari molekulyar, hujayraviy va fiziologik darajada ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda turli umurtqalilar guruhlarida regeneratsiya darajasi, uning genetik boshqaruvi, asosiy signal yo'llari hamda ildiz hujayralarning roli yoritilgan. Shuningdek, regeneratsiya jarayonining evolyutsion va biotibbiy ahamiyati ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: regeneratsiya, ildiz hujayralar, blastema, gen ekspressiyasi, signal yo'llari, umurtqalilar, to'qima tiklanishi, evolyutsiya.

Abstract: Regenerative processes in vertebrate animals are scientifically analyzed at molecular, cellular, and physiological levels. The study highlights differences in regenerative capacity among various groups of vertebrates, mechanisms of genetic regulation, key signaling pathways, and the role of stem cells. In addition, the evolutionary and biomedical significance of regeneration is examined.

Key words: regeneration, stem cells, blastema, gene expression, signaling pathways, vertebrates, tissue regeneration, evolution.

Аннотация: Процессы регенерации у позвоночных животных научно проанализированы на молекулярном, клеточном и физиологическом уровнях. В исследовании освещены различия в уровне регенерации у различных групп позвоночных, механизмы её генетической регуляции, основные сигнальные пути, а также роль стволовых клеток. Кроме того, проанализированы эволюционное и биомедицинское значение процессов регенерации.

Ключевые слова: регенерация, стволовые клетки, бластема, экспрессия генов, сигнальные пути, позвоночные, восстановление тканей, эволюция.

KIRISH

So'nggi yillarda biologiya va tibbiyot fanlarida regeneratsiya jarayonlarini o'rganish eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Regeneratsiya – bu tirik organizmlarning shikastlangan yoki yo'qolgan hujayra, to'qima va organlarni qayta tiklash qobiliyati bo'lib, u organizmning yashab qolishi va funksional yaxliligini saqlashda muhim biologik mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat fundamental biologiya uchun, balki regenerativ tibbiyot, to'qima muhandisligi va organ transplantatsiyasi kabi zamonaviy yo'nalishlar uchun ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Umurtqali hayvonlarda regeneratsiya darajasi va mexanizmlari turlicha bo'lib, ular evolyutsion rivojlanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liq. Pastki umurtqalilarda, xususan, baliqlar va amfibiyalarda regeneratsiya yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ular yo'qotilgan tana qismlarini to'liq va funksional jihatdan tiklay oladi. Aksincha, yuqori darajadagi umurtqalilar, jumladan, qushlar va sutemizuvchilarda regeneratsiya cheklangan bo'lib, ko'pincha reparativ tiklanish – ya'ni chandiqlanish orqali amalga oshadi. Ushbu farqlar regeneratsiya jarayonining evolyutsion, genetik va fiziologik asoslarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar regeneratsiyaning murakkab hujayraviy va molekulyar mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Xususan, gen ekspressiyasining qayta dasturlanishi, epigenetik o'zgarishlar hamda Wnt/ β -katenin, FGF va Notch kabi signal yo'llarining roli regeneratsiya jarayonining markaziy elementlari

sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, ildiz hujayralarning proliferativ va differensiyalanish qobiliyati yangi to'qimalarning shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Bu jarayonlarning uyg'un ishlashi regeneratsiyaning samaradorligini belgilaydi.

Bundan tashqari, regeneratsiya jarayoniga immun tizim, yallig'lanish reaksiyalari va to'qima mikro muhiti ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Pastki umurtqalilarda yallig'lanish reaksiyalari nisbatan nazorat ostida kechib, regeneratsiyani qo'llab-quvvatlash, yuqori umurtqalilarda kuchli yallig'lanish va fibroz jarayonlari regeneratsiyani cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, regeneratsiya va immun javob o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – umurtqali hayvonlarda regeneratsiya jarayonlarini molekulyar, hujayraviy va fiziologik darajada kompleks tahlil qilish, turli guruhlarda regeneratsiya darajasini solishtirish hamda uning genetik boshqaruv mexanizmlarini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, regeneratsiyaning evolyutsion xususiyatlari va uning zamonaviy biotibbiyotdagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda regeneratsiya jarayoni ko'p darajali tizim sifatida kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari regenerativ biologiya sohasidagi mavjud bilimlarni boyitish bilan birga, inson organizmida regeneratsiya imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek olimlari tomonidan yozilgan Dadayev S. va Saparov Q.ning "Umurtqalilar zoologiyasi" darsligida umurtqali hayvonlarning umumiy biologik xususiyatlari, to'qima va organ tizimlari haqida keng ma'lumot berilgan. Mazkur manbada regeneratsiya jarayoni alohida mavzu sifatida chuqur yoritilmagan bo'lsa-da, organizmning tiklanish xususiyatlari va fiziologik jarayonlari haqida nazariy asoslar keltirilgan. Bu esa regeneratsiya hodisasini tushunishda muhim fundament vazifasini bajaradi.

Shuningdek, Dadayev S., To'ychiev S., Haydarova P. tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada umurtqalilarning sistematikasi va biologiyasi bilan bir qatorda ayrim guruhlarda uchraydigan tiklanish xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Ushbu manba amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Milliy ensiklopedik manbalarda, xususan, UzPedia va Qomus platformalarida regeneratsiya tushunchasiga umumiy ta'rif berilib, uning turlari – reparativ va to'liq regeneratsiya haqida izohlar keltirilgan. Ushbu manbalar biologik terminlarning mazmunini aniqlashtirishda va nazariy asoslarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy o'zbek ilmiy maqolalarida esa regeneratsiya yanada tor doirada, ya'ni alohida to'qima yoki tizimlar kesimida o'rganilgan. Masalan, Jo'rayeva S. A.ning ilmiy ishida nerv to'qimalarining regeneratsiyasi hamda umurtqalilar va odam o'rtasidagi farqlar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot regeneratsiya jarayonining fiziologik va funksional cheklanishlarini ochib beradi.

Boshqa ilmiy maqolalarda, jumladan, to'qimalarning regeneratsiyasi va klinik ahamiyati haqidagi ishlarda regeneratsiya jarayonining tibbiyot bilan bog'liq jihatlari ko'rib chiqilgan. Bu esa regeneratsiyaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umurtqalilarda regeneratsiya masalasi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa, uning molekulyar va genetik mexanizmlari chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Shu sababli, mazkur mavzu biologiya va tibbiyot fanlarida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida umurtqalilarda regeneratsiya jarayonlarini o'rganish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullari tashkil etadi.

*Birinchi*dan, nazariy tahlil usuli orqali regeneratsiya jarayonining biologik mohiyati, uning hujayraviy va molekulyar asoslari ilmiy adabiyotlar asosida o'rganildi. Bu jarayonda umurtqalilar zoologiyasi va umumiy biologiya bo'yicha darsliklar, ilmiy maqolalar hamda ensiklopedik manbalardan foydalanildi. Xususan, umurtqalilar tuzilishi va funksional xususiyatlarini yorituvchi asosiy manbalar sifatida Dadayevning zoologiya darsliklari tahlil qilindi.

*Ikkinchi*dan, taqqoslash (komparativ) usuli qo'llanilib, turli umurtqalilar guruhlarida regeneratsiya darajasi o'zaro solishtirildi. Jumladan, baliqlar (Pisces), suvda hamda quruqlikda yashovchilar (Amphibia), sudralib yuruvchilar (Reptilia) va sutemizuvchilar (Mammalia)da regeneratsiya imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Bu usul regeneratsiyaning evolyutsion xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.



Uchinchidan, tizimli yondashuv asosida regeneratsiya jarayoni yagona biologik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Unda hujayraviy, to'qimaviy va organ darajasidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Bu yondashuv regeneratsiya jarayonining murakkab va ko'p bosqichli ekanligini tushuntirish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda umumlashtirish usuli orqali turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir tizimga keltirildi va ilmiy xulosalar chiqarildi. Olingan natijalar asosida regeneratsiya jarayonining umumiy qonuniyatlari aniqlashtirildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar regeneratsiya jarayonini har tomonlama o'rganish, uning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umurtqali hayvonlarda regeneratsiya jarayoni murakkab, ko'p bosqichli va turli darajada rivojlangan biologik hodisa hisoblanadi. Regeneratsiya darajasi organizmning evolyutsion rivojlanishi, genetik xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlariga bevosita bog'liq.

Regeneratsiyaning nazariy mohiyati shundan iboratki, differensiyalangan hujayralar ma'lum sharoitlarda o'zining ixtisoslashgan holatini yo'qotib, yana proliferatsiyaga qodir bo'lgan holatga o'tadi. Ushbu jarayon dedifferensiyalanish deb ataladi va regeneratsiyaning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Dedifferensiyalangan hujayralar keyinchalik yuqori proliferativ faollikka ega bo'lgan hujayralar massasini – blastema hosil qiladi. Blastema regeneratsiyaning markaziy morfogenetik strukturasi bo'lib, unda hujayralar qayta differensiyalanib, yangi to'qima va organlarni shakllantiradi.

Hujayraviy darajada regeneratsiya proliferatsiya, ya'ni hujayralarning faol bo'linishi bilan boshlanadi. Proliferatsiya jarayoni hujayra siklining faollashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu bosqichda DNK replikatsiyasi va mitoz jarayonlari intensiv kechadi. Keyingi bosqichda hujayralar differensiyalanish jarayoniga kirishadi, ya'ni ular ma'lum tuzilma va funksiyaga ega ixtisoslashgan hujayralarga aylanadi. Shu bilan birga, regeneratsiya davomida morfogenez jarayoni amalga oshib, yangi hosil bo'lgan hujayralar fazoviy jihatdan to'g'ri joylashadi va organ tuzilmasi tiklanadi.

Regeneratsiyaning molekulyar asosini turli signal uzatish tizimlari tashkil etadi. Ayniqsa, Wnt/ β -katenin signal yo'li hujayra proliferatsiyasini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. FGF (fibroblast growth factor) signal tizimi esa hujayralarning o'sishi va migratsiyasini boshqaradi. Notch signal yo'li hujayralararo aloqani ta'minlab, differensiyalanish jarayonini nazorat qiladi. Bundan tashqari, Hedgehog signal tizimi morfogenetik jarayonlarda ishtirok etib, regeneratsiya vaqtida to'qimalarning to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi.

Ushbu signal yo'llari o'zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi va regeneratsiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Regeneratsiya jarayonida ildiz hujayralar (stem cells) muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zini yangilash va turli hujayra turlariga aylanish qobiliyatiga ega bo'lib, zararlangan hududda yangi to'qimalarni hosil qiladi. Ba'zi umurtqalilarda rezident ildiz hujayralar mavjud bo'lib, ular shikastlanishdan so'ng faollashadi. Sutemizuvchilarda esa bu jarayon cheklangan bo'lib, ko'pincha regeneratsiya o'rniga fibroz, ya'ni chandiqlanish kuzatiladi.

Fiziologik jihatdan regeneratsiya jarayoniga yallig'lanish reaksiyalari, qon aylanishi va metabolik jarayonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, angiogenez – yangi qon tomirlarining hosil bo'lishi regeneratsiya vaqtida to'qimalarni kislorod va oziqa moddalari bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, apoptoz – dasturlangan hujayra o'limi ortiqcha yoki zararlangan hujayralarni yo'q qilish orqali regeneratsiyaning sifatini ta'minlaydi.

Genetik jihatdan olib qaralganda, regeneratsiya jarayoni maxsus genlar to'plami bilan boshqariladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim genlar (masalan, blastema hosil bo'lishida ishtirok etuvchi genlar) pastki umurtqalilarda faol bo'lsa, yuqori umurtqalilarda ularning ekspressiyasi susaygan yoki umuman yo'q. Bu esa regeneratsiya qobiliyatining evolyutsion yo'qolishini izohlovchi muhim omil hisoblanadi. Hayvon misollarini tahlil qilish bu farqlarni yanada yaqqol ko'rsatadi.

Umurtqalilar (Vertebrata) orasida regeneratsiya eng rivojlangan guruh – amfibiyalar hisoblanadi. Masalan, aksotl (Ambystoma mexicanum) nafaqat oyoq-qo'llarini, balki yurak, orqa miya va hatto ko'z to'qimalarini ham to'liq tiklay oladi. Jarohatdan so'ng bu hayvonda blastema tez hosil bo'ladi va hujayralar yuqori darajada qayta dasturlanadi. Shu sababli tiklangan organlar funksional jihatdan ham to'liq bo'ladi.

Shunga o'xshash holat salamandra (Salamandra salamandra)da ham kuzatiladi. Ular oyoq-qo'llari va dumini regeneratsiya qiladi, bunda nerv to'qimalari ham qayta tiklanadi. Bu esa nerv tizimining regeneratsiyadagi muhim rolini ko'rsatadi.

Baliqlar (Pisces) orasida regeneratsiya yuqori darajada rivojlangan. Masalan, zebrabaliq (Danio rerio) yurak mushaklarini jarohatdan so'ng qayta tiklay oladi. Bu jarayonda mavjud kardiomyositlar dedifferensiyalanib, yana bo'linish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bu baliq suyak va suzgich (fin) qismlarini ham regeneratsiya qiladi.

Boshqa bir misol – oltinbaliq (*Carassius auratus*) bo'lib, u suzgichlarini va ayrim to'qimalarni tiklay oladi. Bu jarayon ham blastema hosil bo'lishi orqali amalga oshadi.

Sudralib yuruvchilar (*Reptilia*)da regeneratsiya cheklangan bo'lsa-da, ayrim qiziqarli misollar mavjud. Masalan, kaltakesak (*Lacerta agilis*) dushmandan qochish vaqtida uzilgan dumini qayta o'stira oladi. Biroq bu jarayon to'liq regeneratsiya emas – yangi dum asosan tog'ay to'qimadan iborat bo'ladi va asl umurtqa tuzilmasi tiklanmaydi.

Yana bir misol sifatida gekkon (*Gekko gecko*)ni keltirish mumkin. U ham dumini autotomiya orqali yo'qotib, keyinchalik regeneratsiya qiladi. Biroq regeneratsiya qilingan dumning rang va tuzilishi farq qiladi.

Qushlar (*Aves*)da regeneratsiya juda cheklangan. Masalan, tovuq (*Gallus gallus domesticus*)da faqat patlar (tuklar) qayta o'sadi, ammo murakkab to'qimalar yoki organlar tiklanmaydi. Bu esa regeneratsiyaning yuqori darajadagi organizmlarda kamayib borishini ko'rsatadi.

Sutemizuvchilar (*Mammalia*)da regeneratsiya eng past darajada rivojlangan. Masalan, sichqon (*Mus musculus*)larda jigar to'qimasi qisman regeneratsiya qiladi – bu jarayonda mavjud hujayralar ko'payib, organ hajmini tiklaydi. Ammo yangi organ to'liq yangidan hosil bo'lmaydi.

Qiziqarli holat sifatida Afrika tikansichqoni (*Acomys cahirinus*)ni keltirish mumkin. Bu sutemizuvchi teri va ayrim yumshoq to'qimalarni chandiqsiz tiklay oladi. Bu xususiyat uni regeneratsiya tadqiqotlarida muhim modelga aylantirgan.

Inson (*Homo sapiens*)da regeneratsiya juda cheklangan bo'lsa-da, ayrim organlar tiklanish qobiliyatiga ega. Masalan, jigar qisman regeneratsiya qiladi, teri esa jarohatdan so'ng qayta tiklanadi. Biroq bu jarayon ko'pincha chandiqlanish bilan kechadi.

Muhokama natijasida aniqlanishicha, regeneratsiya qobiliyatining evolyutsion kamayishi organizmning himoya mexanizmlarining kuchayishi bilan bog'liq. Ya'ni, tez chandiqlanish organizmni infeksiyalardan himoya qiladi, biroq to'liq regeneratsiyani cheklaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari umurtqali hayvonlarda regeneratsiya jarayoni murakkab, ko'p darajali va qat'iy genetik hamda molekulyar mexanizmlar bilan boshqariladigan biologik tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, regeneratsiya qobiliyati turli umurtqalilar guruhlarida sezilarli darajada farqlanadi va bu farqlar asosan evolyutsion rivojlanish darajasi, hujayra plastikliги darajasi hamda signal yo'llarining faolligi bilan belgilanadi. Pastki umurtqalilarda kuzatiladigan to'liq regeneratsiya jarayoni blastema hosil bo'lishi, dedifferensiyalanish va hujayralarning qayta dasturlanishi bilan tavsiflanadi, yuqori darajadagi umurtqalilarda esa bu jarayon ko'pincha reparativ tiklanish va fibroz bilan cheklanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, regeneratsiyaning muvaffaqiyatli kechishi gen ekspressiyasining dinamik o'zgarishlari, epigenetik modifikatsiyalar va Wnt/ β -katenin, FGF hamda Notch kabi signal tizimlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati bilan bog'liq. Shu bilan birga, ildiz hujayralarning mavjudligi va ularning proliferativ potentsiali regeneratsiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajadagi umurtqalilarda, xususan, sutemizuvchilarda yallig'lanish reaksiyalarining kuchliligi va fibroblast faolligining ortishi natijasida chandiqlanish jarayonining ustunligi to'liq regeneratsiyani cheklovchi muhim omil sifatida qayd etildi.

Shuningdek, olingan natijalar regeneratsiya qobiliyatining evolyutsion jihatdan qisman regressiyaga uchraganligini ko'rsatadi, biroq ayrim istisno modellar (masalan, ayrim kemiruvchilar yoki amfibiyalar) ushbu qobiliyatning genetik asoslari to'liq yo'qolmaganini, balki funksional jihatdan bostirilganligini anglatadi. Bu esa regeneratsiya mexanizmlarini qayta faollashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari regeneratsiya jarayonining fundamental biologik asoslarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda regenerativ tibbiyot, to'qima muhandisligi va organlarni qayta tiklash texnologiyalarini rivojlantirish uchun muhim nazariy platforma yaratadi. Kelgusidagi tadqiqotlar regeneratsiyani boshqaruvchi genetik va epigenetik omillarni aniqlash, shuningdek, inson organizmida regenerativ potentsialni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yo'naltirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dadayev S., To'ychiev S., Haydarova P. Umurtqalilar zoologiyasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
2. Dadayev S., Saparov Q. Umurtqalilar zoologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2018.
3. UzSmart. Regeneratsiya. – Onlayn ensiklopediya, 2024.
4. UzPedia. Regeneratsiya. – Onlayn ensiklopediya, 2025.
5. Jo'rayeva S. A. Nerv to'qimalarining regeneratsiyasi: umurtqali hayvonlar va odamlar o'rtasidagi farq // IQRO jurnali. – 2025. – 12(3). – B. 45–58.



6. Haydarov F. To'qimalarning regeneratsiyasi va ularning klinik ahamiyati // Scientific JL. – 2022. – 8(2). – B. 23–34.
7. Xaqberdiyeva Sh. T. Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – 3(12). – B. 16–19. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17991257>
8. Haqberdiyeva S. T. The role of pedagogy and psychology in improving the methodology of teaching biology based on a general approach to secondary schools // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Vol. 6. – P. 115–118.
9. Haqberdiyeva S. T. Improving the teaching methods of biology in general secondary schools on the basis of a competency-based approach // Academics Globe. – 2022. – Vol. 3. – No. 03. – P. 132–136.
10. Tursunaliyevna H. S., Nozima A. Effectiveness of using innovative technologies in teaching the morphology of bacteria // Journal of Universal Science Research. – 2023. – Vol. 1. – No. 10. – P. 60–66.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.